



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRI SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN E'TIBOR

**Dilbar To'rayevna Abdurasulova JDPU,  
UMUMIY TARIX kafedrası o'qituvchisi  
Boboyeva Holida Tarix fakulteti 2-kurs talabasi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada mustaqillik sharofati bilan Jizzax shaxrida iqtisodiyotni ishlab chiqarish munosabatlarini ma'muriy buyruqbozlik-markaziy rejalashtirilgan mehanizmdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish haqida va Jizzax shaxrida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni tubdan isloh qilish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bozor iqtisodiyoti, sanoat, ishlabchiqarish, islohot, sanoat taraqqiyoti, sanoat korxonalarini, "Jizzax" maxsus industrial zona, kichik biznes xissasi, tadbirkorlik.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о переходе экономических производственных отношений в городе Джизаке от административно-командно-планового механизма к свободному рыночному хозяйству и о коренном реформировании экономики с целью формирования социально ориентированной рыночной экономики в городе Джизак.

**Ключевые слова:** Рыночная экономика, промышленность, производство, реформа, промышленное развитие, промышленные предприятия, особая индустриальная зона «Джизак», вклад малого бизнеса, предпринимательство

**Annotation:** This article provides information on the transition of economic production relations in the city of Jizzakh from the administrative-command-planning mechanism to a free market economy and on the fundamental reform of the economy in order to form a socially oriented market economy in the city of Jizzakh.

**Key words:** Market economy, industry, production, reform, industrial development, industrial enterprises, Jizzakh special industrial zone, small business contribution, entrepreneurship.

Mustaqillik yillarida Jizzax shahri iqtisodiy infrotuzilmalar va shahar iqtisodining rivojlanishi xususida ilmiy muloxazalarni boyitishga xizmat qiladi. Unda Mustaqillik sharofati bilan Jizzax shaxrida iqtisodiyotni, ishlab chiqarish munosabatlarini ma'muriy buyruqbozlik-markaziy rejalashtirilgan mehanizmdan erkin, bozor iqtisodiyotiga o'tish haqida keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Jizzax shaxrida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni tubdan isloh qilish haqida ma'lumotlar berilgan.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan.

Jizzax viloyati va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 2 453,8 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Jizzax viloyatining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 107,2 % tashkil etdi. Shaharda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 13 942,1 ming. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, shaharda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1 078,0 mlrd.so'mni tashkil qilib, Jizzax viloyatining jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishida 47,3 % tashkil etdi. Shaharda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari aholi jon boshiga 6 124,8 ming. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

Keyingi yillarda Jizzax viloyati va uning markazida iqtisodiyotni yanada yuksaltirishga, sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochib berishga alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun sanoat korxonalarini barpo etish asosiy masala qilib belgilangan edi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2013-yil 18-martdagi "Jizzax" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida "gi farmoni ana shu ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga asos bo'lib xizmat qildi. Farmonga muvofiq maxsus industrial zona uchun Jizzax shahridan 364 gektar yer ajratib berildi. Zonada xorijiy investisiyalar ishtirokida jami qiymati 158,2 million dollar bo'lgan 24 ta yirik sanoat loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan edi. Bugungi kungacha 63,6 million dollar qiymatga teng 21 ta loyiha amalga oshirildi. Yangi "Auto Pad Systems" qo'shma korxonasi ana shu loyihalardan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan bu korxonada yiliga 520 ming dona tormoz kolodkalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Yana bir yirik loyiha asosida "Roisoh Home White Goods" qo'shma korxonasi barpo etildi.

Bundan 20-25 yil avval barmoq bilan sanarli ishlab chiqarish korxonasi bo'lgan shaharda ayni paytda 500 ga yaqin katta-kichik sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 2 453,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etdi.

*birlikda*

	2018 yil 1 yanvar holatiga	2019 yil 1 yanvar holatiga	2020 yil 1 yanvar holatiga
<b>Sanoat korxonolari, jami</b>	<b>706</b>	<b>822</b>	<b>949</b>
- Yirik	7	7	7
Kichik korxonalar va mikro firmalar	699	815	942
- Sh.J. xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar	34	41	46

2019 yilda 200 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etilib, ularning barchasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri keldi.

*birlikda*

	2017 yil	2018 yil	2019 yil
<b>Sanoat korxonolari, jami</b>	<b>128</b>	<b>186</b>	<b>200</b>
- Kichik korxonalar va mikro firmalar	127	186	200
Sh.J. xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar	1	14	12

Hisobot yilida 1078 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan 107,8 foizni tashkil etdi. Jumladan, 143,9 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 13,3 % ni tashkil qilib, 934,1 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2018-yil yanvar-dekabrga nisbatan mos ravishda 109,1 foiz tashkil qildi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari bozor konyunkturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozorida muvozanatni ushlab turishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida shaharda 2 453,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 1 598,4 mlrd. so'mni kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda

katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Jizzax shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 1 503,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, shuning bilan birga davlat sektorida 645,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, nodavlat sektorida 1 808,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish tashkil etadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida barkaror iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan sanoatni rivojlantirishga bog'liq. Sanoatni rivojlanish darajasiga qarab iqtisodiy o'sishni barqarorligini belgilash mumkin. Buning boisi, milliy sanoat rivojlanishining iqtisodiy ahamiyati asosan uning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, qo'shilgan qiymat yaratish va milliy bozorni investision va iste'mol tovarlari bilan to'ldirishdagi roli bilan belgilanadi. Ma'lumki, milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi sanoatdagi o'zgarishlar hisoblanadi.

Sanoatda yangi texnologiyalarning o'zlashtirilishi va yangi korxonalarining qurilishi qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatishda ham ishlab chiqarish jarayonining takomillashishi hamda mehnat unumdorligining oshirishini ta'minlashi hech kimga sir emas.

### **Xulosa**

Jizzax shahrining sanoat tarmog'ini kelgusida yanada rivojlantirish, ijtimoiy mehnat taqsimoti hamda ishlab chiqarishni chuqur ixtisoslashuvi prinsiplariga amal qilinish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shahar sanoat tarmog'ini yanada takomillashtirish uchun, avvalo, quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish maqsadida bor imkoniyatlarni ishga solish;
- bugungi kunda to'xtab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash chora-tadbirlarini ko'rish;
- yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish borasida tegishli yo'l xaritasini ishlab chiqish va uni bajarilishini doimiy nazoratga olish;
- yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;
- shahar sanoat tarmog'ini rivojlanishida kichik korxonalar sonini yanada ko'paytirish va ularni tashkil etish chora-tadbirlarini rag'batlantirishni yo'lga qo'yish;
- import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mahalliyashtirish dasturini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga kurashamiz”. Toshkent “O'zbekiston” NMIU 2017 yil. 345.
2. Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun. 1996 yil 25 aprel.
3. A.Abdusamatov “Yanada yuksak marralar sari”. Jizzax xaqiqati. 2015 y. №70 (5590)
4. Beknazarov T. Vvede novstroyno voepredpriyatie. Djizzakskaya provda 2016. 9 yanvar №4.